

O‘ZBEKISTONDA STATISTIKANING TASHKIL ETILISHI

Abdusalomova Istoraxon Ilxom qizi

KMO va STI ti 3 kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda statistikaning tashkil etilishi, zamonaviy ta’lim standartlari va sifat jihatidan yangi o‘qitish tizimini takomillashtirish, xalqaro statistika tashkilotlari bilan hamkorlik qilish haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: statistika, ta’lim standartlari, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, ilmiy-tadqiqot yutuqlar.

Kirish: Hozirgi kunda davlatimiz ta’lim tizimida statistik kadrlar malakalarini takomillashtirish, yoshlar orasida tahliliy fikrlash qobiliyatini oshirish, ularning olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirish, shuningdek, iqtisodiy fanlardan iborat zamonaviy ta’lim standartlari va sifat tomonlama yangi o‘qitish tizimini rivojlantirib borish, ayniqsa, xorijiy davlatlarning sohaga doir ilg‘or tajriba hamda ilmiy-tadqiqot yutuqlarini ayirboshlash, xalqaro statistika tashkilotlari bilan hamkorlik qilish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Statistik kuzatish natijasida o‘rganilayotgan hodisalarning har biri haqida juda ko‘p ma’lumotlar to‘planadi. Ammo bu ma’lumotlar biror belgi bo‘yicha tartibga keltirilmaganligi tufayli hodisalar haqida umumiy xulosalar qilishga imkon bermaydi. Shuning uchun navbatdagi vazifa ma’lumotlarni jamlash, bir tizimga keltirish va qayta ishlashdir. Bu bosqich har qanday statistik tadqiqotning ikkinchi bosqichi bo‘lib, statistik kuzatish ma’lumotlarini jamlash va guruhlash deb yuritiladi. Statistika jamlash tor va keng ma’noda tushuniladi. Tor ma’noda jamlash deganda kuzatishdan olingan ma’lumotlarni biror belgisiga qarab guruhlamasdan, to‘planning umumiy yakunini hisoblanish tushuniladi. Statistika ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning umumiy taraflarini ko‘proq o‘rganadi. Statistik to‘plam bir nechta yakka

miqdorlardan tashkil topadi. Bu yakka hodisalarda o'ziga xos bo'lgan tomonlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham to'plamga umumiy bo'lgan ya'ni juda ko'p marta yakka hodisalarda takrorlanadigan tomonlarini aniqlash kerak. Buning uchun o'rtacha miqdorlar sanaladi. O'rtacha miqdorlarda yakka miqdorlarga xos individual bo'lgan farqlar sezilmasdan, shu to'plamdagi umumiy, tipik bo'lgan jihatlar jamlanadi.

Natijalar: Statistika ommaviy hodisalarni statistik to'plam asosida o'rganadi. Statistik to'plam - ma'lum bog'lanishdagi bir xil sifatga ega bo'lgan, biroq shu bilan bir vaqtda har biri o'ziga xos individual belgilari mavjud bo'lgan hodisalardir. Masalan, sanoat ishlab chiqarishini o'rganmoqchi bo'lsak, biror davrdagi juda ko'p sanoat korxonalarining ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini: mahsulot ishlab chiqarish hajmi, xodimlar soni, asosiy vositalar qiymati va shu kabilarni o'rganamiz. Ammo bu ko'rsatkichlar sanoat korxonalarida umumiy belgilar bo'lgani bilan, ular har bir korxonalarining xususiyatlaridan kelib chiqib, har xildir. Statistik tadqiqot to'plamdagi har bir birlikni o'rganishdan, undagi belgilarni qayd qilishdan boshlanadi. Statistik to'plamni tashkil qiluvchi har bir element to'plam birligi deb ataladi. To'plamning umumiy belgi, xususiyatlariga ega bo'lib, lekin ular har bir birlikda o'ziga xosdir, turli xil miqdor va sifat belgilarga egadir. Statistik to'plam elementlarining har xilligi, o'zgaruvchanligi variatsiyani bildiradi. Statistik to'plam birliklarining bunday o'zgarishlari - o'zgaruvchi belgilar deyiladi. Statistika ommaviy hodisalarning o'zgaruvchan belgilariga asosan ularning takomillanish qonuniyatlarini yechib beradi.

Statistika nazariy mavjud bo'lgan va nazariy tomondan aniqlab bo'lmaydigan qonuniyatlarni aniqlab beradi. Misol uchun, tovar narxining oshishi natijasida talab kamayishi nazariy jihatdan aniq, lekin qanchalik kamayishni statistika aniqlab berishi mumkin. Aholi byudjeti daromad qismining ko'payishi bilan, oziq - ovqat mahsulotlarining hissasi kamayishi qonuniyati - ikkinchisiga misol bo'la oladi.

Muhokama: Statistika matematika fani bilan uzviy bog'liq. Voqea va jarayonlar haqidagi statistik to'plamdagi birliklar qancha ko'p bo'lsa, umumiy belgilar shunchalik

aniq ko'rinadi. Shuning uchun ham statistika katta sonlar qonuniga asoslanadi, kuzatish ma'lumotlarini guruhlashda matematik usullardan keng qo'llaniladi.

Statistika - ayniqsa iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Iqtisodiy nazariyadan: ijtimoiy mahsulot, milliy daromad, qiymat, foyda, mehnat, ish haqi, mehnat unumdorligi va shu kabi iqtisodiy kategoriyalar mazmunini va iqtisodiy qonunlarni bilib oladi, ularni ommaviy hodisa va jarayonlarni o'rganishda foydalanadi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytilish joizki, statistikaning vazifasi ommaviy ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning hajmini, tarkibini, dinamikasini va unga ta'sir qiluvchi muhim omillarni o'rganish, shuningdek mamlakatning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari belgilab berishdan, shuningdek davlatni uning tarmoqlarini, alohida korxonalar, firmalar va tashkilotlarni boshqarish uchun kerak bo'ladigan ilmiy asoslangan ma'lumotlar bilan boshqaruv organlarini va rahbar xodimlarni ta'minlab berishdan iboratdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev Yo., Pardayev M.K., Xudayberdiyev U. X., Aliyev B. Statistika. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-Moliya" 2011.
2. Shodiyev X.A. va boshqalar. Statistika. Darslik, T.: tafakkur bo'stoni, 2013.
3. Xudayberdiyev U.X., Xoliqulov A.N., Turdibekov YU.I. Statistika. O'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand, SamISI, 2012.
4. Boltayev T., Urunov R. Statistika umumiy nazariyasidan praktikum. T.: 2006.